

## FARZAND TARBIYASIDA OILANING VAZIFALARI

Ibragimova Nargiza Allambergenovna

**Qoraqolpog‘iston Respublikasi Taxiatush kasb-xunar maktabi O‘zbek tili  
(davlat tili) fani o‘qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Jamiyatda oilaning funksiyalarini oshirish, farzand tarbiyasidagi qarashlarni milliy qadriyatlar, millat mentaliteti bilan uyg‘un holda shakllantirish oliy maqsad bo‘lib turibdi. Shu haqdagi fikrlar, takliflar va tavsiyalar ushbu maqola bayonida tahllil qilib berildi.

**Kalit so‘zlar:** Oila, nikoh, tarbiya, farzand.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib ham O‘zbekiston o‘z istiqboli va kelajagini oilani rivojlanirish, uni e’zozlashda, deb bilayotgani yuqoridagi an’anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Oila paydo bo‘lishi va rivojlanishini ilmiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, oilaning tashkil bo‘lishida asosiy omil – nikoh hisoblanadi. O‘z navbatida, umuminsoniy va milliy oilaviy qadriyatlarni tahlil qilish asosida zamonaviy, namunali oila mezonlarini belgilash hamda “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsipini keng targ‘ib etish va jamiyatga singdirish masalalariga kompleks yondashish faoliyatimizda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda unutmasligimiz kerakki, nikoh bu insoniyat tarixining ma’lum bosqichida paydo bo‘lgan. Jamiyat taraqqiy etib borishi bilan uning shakli o‘zgarib, o‘zi esa mustahkamlanib zamon tasirida shaklini o‘zgartirmoqda. O‘zbekistonda oila va nikoh borasidagi o‘zgarishlar yil sayin ijobiy tus olayotganligini tan olish zarur. Bugun yurtimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oila tuzilmalarining tipologiyasi juda dinamik holatda o‘sib bormoqda. Vaqt o‘tishi bilan u jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, butun ijtimoiy-madaniy, etnik, diniy va hududiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Oila tarkibi nikoh motivatsiyasi, nikohdan oldingi xatti-harakatlar va yosh oilaning yangi turmush sharoitlariga moslashish darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy oilaning turlari, uning turmush tarzi, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar va oila ichidagi mikroiqlim juda xilma-xildir. Nafaqat

avlodlar yoki bolalar soni, balki farovonlik darajasi va boshqa parametrlar ham mos kelmaydi. Yagona oilaviy ijtimoiy voqelik bo‘lmaganidek, yagona oilaviy submadaniyat yo‘q. Oilaning moddiy, ma’naviy, diniy, psixologik, tarbiyaviy, jinsiy, reproduktiv, yosh va boshqa tarkibiy qismlarining o‘ziga xos xususiyatlari mohiyat jihatidan farqlarni keltirib chiqaradi.

Oila bu muqaddas dargoh. U har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu muqaddas dargohda oila a’zolari hamjihatlik bilan bir-birlariga mehr ko‘rsatishlari hamda har tomonlama barkamol shaxsni vochga yetkazish va tarbiyalash uchun mas’ul ekanliklarini unutmasligi darkor.

Oilada har bir ota-onha o‘z surriyodi, ya’ni farzandi kamoli va taqdiri haqida qayg‘urishi lozim.

Balog‘at yoshiga yetmasdan oila qurbanlar o‘rtasida esa o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib, ilm-hunar ololmasligi natijasida bir-birini tushunmaslik hamda oiladagi moddiy yetishmovchilikning vujudga kelishi tufayli muqaddas bo‘lgan oilaning barbod bo‘lish holatlari ayniqsa kuchlidir.

Ibratli oilalar xushxulq, imon-e’tiqodli, solih, vijdonli hamda jamiyat rivoji, Vatan ravnaqiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan farzandlarni tarbiyalaydi.

Har tomonlama yetuk va mustahkam oilada kamol topgan farzandlar jismonan sog‘lom, ruhan tetik, intellektual salohiyati yuksak bo‘ladi.

Oila jamiyatning birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadi. Shunga ko‘ra, hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, barqaror va tinch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’nan va axloqan tarbiya topadi.

Binobarin, oila er-xotin, ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat kishilar guruhi, ya’ni xonodon hisoblanadi. Ayni chog‘da oila kishilarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birligi hamdir.

Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi. Demak, oila jamiyatning tabiiy hujayrasi, ijtimoiy asosidir. Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham

shunchalik mustahkam bo‘ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi – oilaning moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda har yili minglab nikohlar rasman qayd qilinadi yoki shuncha oila vujudga keladi.

Bugungi kunda respublikamizda o‘n mingdan ortiq mahalla va qishloq fuqarolari yig‘inlari oilalar bilan jamoatchilik asosida katta tashkiliy va ommaviy ishlarni olib bormoqda, oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashga, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda.

Oila jamiyat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega, deyilganda, mamlakatda mavjud bo‘lgan jamiyatlar va jamg‘armalar, nodavlat notijorat tashkilotlarning oilaga ham moddiy, ham ma’naviy yordam berishi tushuniladi. Bu qoida mustaqil mamlakatimiz Konstitutsiyasida ilk bor belgilangan yangi qoidadair.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan. Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor bergenlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-

ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;
- odamlar xursandchilagini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;
- farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘sni, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;
- yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Albatta farzand tarbiyasida oilaning o‘rni benihoya katta rol o‘ynaydi. Jamiat rivojida vatanimizning oltin avlodlari tarbiyasida er va xotin juftligidan tashkil topgan oila o‘z oldiga kelajak istiqboli uchun farzand tarbiyasida buyuk rejalarни amalga oshirishi lozim bo‘ladi, Jahonda yetishib chiqqan buyuk allomayu zotlar ham oilada erkak va ayolning tarbiyasi ila shu darajaga yetishib chiqqan. Bugun tamaddunlar rivojlanib borgan sari insoniyat o‘z oldiga juda katta maqsadlarni qo‘ymoqda. Lekin jahon globallashuvi ta’sirida farzand tarbiyasi tobora oilaning nazoratidan chetga chiqib, tarbiyatagi bo‘shliqning o‘rnini “ko‘cha tarbiyasi”, “internet, telefon tarbiyasi” to‘ldirmoqda. Ana shunday kechiktirib bo‘lmas tarbiya jarayonlarida oilaning o‘rni muhim bo‘lmog‘i lozim.